



2022 CANADA CONFERENCE

VOLUME 1
ISSUE 3



E- CONFERENCE
SERIES

INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENTIFIC RESEARCH IN NATURAL AND SOCIAL SCIENCES DECEMBER 5TH 2022



TOPICS COVERED

- NATURAL SCIENCES
- SOCIAL SCIENCES
- APPLIED SCIENCES
- MEDICAL SCIENCES
- ENGINEERING SCIENCES

www.econferenceseries.com

Scanned with CamScanner

24. YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI - JAMIYAT UCHUN

Abdurazakova Kamolaxon Yusupovna

123-127

25. KASHTA TIKISHGA TAYYORLASHNI O'RGATISHNING INNAVATSIYON KASBIY FAOLIYATIGA TAYYORLASH METODIKASI

Razzoqova Xadicha Ro`zimurodovna

128-131

26. TEXNOLOGIYA FANIDA ANIQ DARS MAVZUSIGA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO`LLASH

Xolmonova Oydin Xonto`rayevna

132-137

27. BO'LAJAK TEXNOLOGIK O'QITUVCHILARINING AXBOROT OLISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Djuzboyeva Mavluda Tilovboyevna

138-141

28. COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TRANSLATION OF PHRASES INVOLVING HUMAN BODY PARTS IN UZBEK AND ENGLISH

Mubinaxon Nazirova

142-145

29. ОПОВЕЩЕНИЕ И ЭВАКУАЦИЯ НАСЕЛЕНИЯ ВО ВРЕМЯ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ

Мадумаров Иброхим Эргашевич

146-150

30. CORRECTION OF THE GENETIC EFFECT OF DALAPONA (HERBICIDE) WITH THE HELP OF PLANT EXTRACTS

P. Kh. Khalikov, A. K. Kurbanov, Kh.Zh. Khusainova

151-152

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI - JAMIYAT UCHUN

Abdurazakova Kamolaxon Yusupovna

Toshkent shahar Yakkasaroy tumani Alisher Navoiy nomli
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va uning maqsad va vazifalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi, Oliy majlis, Taraqqiyot strategiyasi, ma'naviy taraqqiyot, qonun ustuvorligi tamoyillari, inson qadri, jamiyat, qaror.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda 2022-yil – "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini imzoladi. Mazkur Farmon loyihasi 2021-yilning 30-dekabridan 2022-yilning 15-yanvar kuniga qadar 2022-2026.strategy.uz, regulation.gov.uz va jamoatchilik.uz portallari orqali keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazildi. "Taraqqiyot strategiyasi" markazi Axborot xizmatidan ma'lum qilishlaricha, muhokamalar davrida Farmon loyihasining mazmun-mohiyatini keng aholi qatlamiga yetkazish maqsadida televideniye, radio, elektron ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda materiallar muntazam ravishda chop etilib borildi. Xususan, mahalliy ommaviy axborot vositalari, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda 3 600 ga yaqin materiallar e'lon qilindi, teleradiokanallarda qariyb 1 700 ta ko'rsatuv va eshittirishlar efirga uzatildi, ijtimoiy tarmoqning "Facebook" va "Telegram" kabi kanallariga mavzuga oid 1 600 ga yaqin materiallar joylashtirildi. Natijada, loyiha bo'yicha jami 17 535 ta taklif kelib tushdi. Xususan, birinchi, Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish yo'nalishi bo'yicha – 7 137 ta, ikkinchi, Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish yo'nalishida – 564 ta, uchinchi, Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash yo'nalishida



–1 116 ta, to‘rtinchi, Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishida – 7 395 ta, beshinchi, Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish yo‘nalishida – 225 ta, oltinchi, Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish yo‘nalishida – 892 ta va yettinchi, Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish yo‘nalishida – 206 ta, shu jumlasidandir. Ta‘kidlash joizki, takliflarning 8 000 tasi loyihadagi normalarni qo‘llab-quvvatlashga, 6 000 dan ortig‘i umumiy xarakterdagi, 1 000 ga yaqini qonunchilikda hamda loyihada mavjud masalalar va 1 000 dan ortig‘i aniq masalalarga qaratilgan. Har tomonlama ko‘rib chiqilgan takliflar yakuniga ko‘ra, loyihaga qariyb 100 ta konseptual hamda 200 dan ortiq aniq xarakterga ega o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Xususan, aholi tomonidan bildirilgan takliflarning inobatga olinishi natijasida taraqqiyot strategiyasi loyihasida nazarda tutilgan maqsadlar soni 94 tadan 100 taga ko‘paydi. Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini 2022-yilda amalga oshirishga oid Davlat dasturida rejalashtirilayotgan tadbirlarni moliyalashtirishga umumiy qiymati 55 trln. so‘m va 11,7 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi mablag‘lar ajratilishi ko‘zda tutilgan. 2022-yilgi Davlat dasturi jami 398 ta banddan iborat bo‘lib, birinchi yo‘nalishda – 45 ta, ikkinchi yo‘nalishda – 24 ta, uchinchi yo‘nalishda – 128 ta, to‘rtinchi yo‘nalishda – 59 ta, beshinchi yo‘nalishda – 29 ta, oltinchi yo‘nalishda – 38 ta, yettinchi yo‘nalishda – 75 ta bandni o‘z ichiga qamrab olgan. O‘zbekistonda keyingi besh yillikda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma‘rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasi keng jamoatchilik muhokamasi uchun e‘lon qilindi.

Taraqqiyot strategiyasi loyihasi:

inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o‘shish sur‘atlarini zamon talablari darajasida ta‘minlash;

adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;



ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish;

umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish;

mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borishga qaratilgan 7 ta ustuvor yo'nalishdagi masalalarni qamrab oladi.

Strategiyada quyidagilar belgilandi:

- 1) 2026 yilgacha aholining barcha muhtoj qatlamlari ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam oladilar;
- 2) Qoraqolpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi birinchi-to'rtinchi sinf o'quvchilari davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bepul ovqatlanish (nonushta yoki tushlik) bilan ta'minlanadi;
- 3) 2023 yil 1 yanvardan boshlab pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdori pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 10 barobaridan 12 barobarigacha oshiriladi;
- 4) 1 apreldan boshlab nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablarga farzandlarini yuborayotgan ota-onalarning oyiga 3 mln so'mgacha bo'lgan to'lovlari daromad solig'idan ozod etiladi;
- 5) umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish uchun Davlat byudjetidan 605 mlrd so'm ajratiladi va 141 mingta yangi o'quv o'rinlari yaratilib ularning soni 2026 yil yakuniga qadar 6,4 mIngacha yetkaziladi;
- 6) hududlarda birlamchi tibbiy xizmatini "bir qadam" tamoyili asosida yo'lga qo'yib, 105 ta oilaviy shifokor punkti va 31 ta oilaviy poliklinika tashkil etiladi;
- 7) 2022 yilda yillik inflyatsiya darajasini 9%gacha va 2023 yilda 5% hamda fiskal taqchillikni 3%gacha pasaytirish choralari ko'rib, keyinchalik inflyatsiya va Davlat byudjeti taqchilligi ushbu ko'rsatkichdan oshmasligi ta'minlab boriladi;
- 8) 2023 yildan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 12%gacha hamda bank, moliya va telekommunikatsiya kabi tadbirkorlik yo'nalishlarida foyda solig'i stavkasi 15%gacha tushiriladi;



9) “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026 yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20%ga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20%ga qisqartirish choralari ko‘riladi;

10) 2022 yildan boshlab bosqichma-bosqich tadbirkorlikka oid barcha majburiy talablarni yagona elektron reyestruga kiritish tartibi joriy etiladi hamda takrorlanuvchi va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan majburiy talablar qayta ko‘rib chiqilib, yagona reyestr 2025 yil 1 iyuldan boshlab to‘liq ishga tushiriladi;

11) 2022 yil 1 aprelga qadar tadbirkorlik sub’yektlarida masofaviy (onlayn) faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlarining mavjudligidan hamda ularning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, litsenziya va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlarni olish tartib-taomillari soddalashtiriladi;

12) 25 dan ortiq faoliyat turi bo‘yicha monopoliyalar tugatiladi;

13) fuqarolarga hujjatlarni berish va almashtirishda, shuningdek o‘zaro bog‘liq davlat xizmatlarini murojaatni kutmasdan taklif etish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi;

14) “Fuqarolarning raqamli pasporti” loyihasini joriy qilish hisobiga aholidan tug‘ilganlik to‘g‘risida va haydovchilik guvohnomalari, shahodatnoma va diplom kabi muayyan fakti tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish amaliyoti bekor qilinadi;

15) keksa va nogironligi bo‘lgan shaxslarga davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini soddalashtirish va ularga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali qo‘shimcha qulayliklar yaratiladi;

16) ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma‘muriy ishlar bo‘yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko‘rsatish tartibi joriy etiladi;

17) harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarni hisobga olish bo‘yicha yagona onlayn elektron reyestr yuritilishi yo‘lga qo‘yiladi;

18) jazoni o‘tab bo‘lgan fuqarolarning kelgusida jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga amaliy ko‘maklashish uchun “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish tizimi joriy qilinadi.

Strategiya besh bosqichda amalga oshiriladi, ularning har biri aniq maqsadlardan iborat. Hammasi bo‘lib 100 ta maqsad mavjud.

Loyihada davlat rahbarining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi va saylovoldi dasturida ilgari surilgan tashabbuslar aks



ettirilgan. Muhokamalar davomida davlat organlari mas'ul xodimlari, tegishli soha mutaxassislari, ilmiy doira vakillari hamda mahalliy va xalqaro ekspertlar ishtirokida konferensiya va davra suhbatlari tashkil etiladi.

Xulosa:

Hozir O'zbekistonda Jamiyat taraqqiyotining eng asosiy muammosi insonlarning, ayniqsa yosh avlodning ma'naviy dunyosini shakllantirish va boyitish, ularni istiqloq mafkurasi asosida tarbiyalash, o'zbek xalqining boy madaniy va ma'naviy merosi, qadriyatlari, an'analari va urf-odatlarini egallashlari uchun shart-sharoit yaratishdir. O'zbekistonda fuqarolik, huquqiy, demokratik, dunyoviy jamiyat barpo etilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi bularning xammasi jamiyat uchun va albatta xalqimizning turmush-tarzini yaxshilash maqsadida amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.lex.uz. [1]
2. www.norma.uz [2]
3. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni . [3]
4. www.strategy.uz. [4]



CERTIFICATE OF APPRECIATION

THIS CERTIFICATE IS AWARDED TO

Abdurazakova Kamolaxon Yusupovna

FOR PARTICIPATION AND PUBLICATION OF THE PAPER ENTITLED

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi - jamiyat uchun.

In an International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences, Published online with E- Conference Series, Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 05/12/2022

harper miller
Harper Miller



www.econferenceseries.com



E-CONFERENCE
SERIES

E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

